

EXPRESSION OF VOCATIVES IN UZBEK LANGUAGE

Tabassum Xalilova

O‘zbekiston Milliy Universiteti

Lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

E-mail: smilegrin08@gmail.com

ABSTRACT.

Mankind, using the invaluable wealth given to it - language, spontaneously communicates with the help of address, call, exclamations. Especially in colloquial speech using vocative forms, clarity of thought, emotional feelings, surprise of the speaker in an address to the listener, tone of anger, sarcasm, irony, excitement are reflected. At the same time, they use vocative forms spontaneously. This article describes the expression of vocatives in the Uzbek language.

Key words: vocative, vocative form, vocative sentence, intonation, call, address

ВЫРАЖЕНИЕ ВОКАТИВОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

АННОТАЦИЯ

Человечество, пользуясь дарованным ему бесценным богатством - языком, спонтанно общается с помощью обращения, призыва, возгласов. Особенно в разговорной речи с использованием звательных форм отражаются ясность мысли, эмоциональные переживания, удивление говорящего в обращении к слушающему, тон гнева, сарказма, иронии, волнения. В то же время они употребляют звательные формы спонтанно. В данной статье рассмотрена возможность применения выражений звательных имен в узбекском языке.

Ключевые слова: звательный падеж, звательная форма, интонация, призыв, адрес

O‘ZBEK TILIDA VOKATIV FORMANING IFODALANISHI

ANNOTATSIYA

Insoniyat unga berilgan beabajo boylik- tildan foydalanar ekan, beixtiyor murojaat, chaqiriq, undovlar yordamida muloqotga kirishadi. Ayniqsa, so‘zlashuv nutqida vokativ formalaridan foydalanib fikrining aniqliligi, emotsiyal tuyg‘ulari, so‘zlovchining tinglovchiga murojaatida hayronligini, g‘azab ottenkasi, piching, ironiya, hayajon kabi xususiyatlar aks ettiriladi. Bunda ular beixtiyor vokativ formalaridan foydalanadilar. Ushbu maqolada vokativlarning o‘zbek tilida ifodalanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: vokativ, vokativ forma, vokativ gap, intonatsiya, murojaat, chaqiriq.

KIRISH. (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Tilning eng asosiy bo‘lagi bo‘lgan so‘z lug‘at sostavi va gramatik qurilish nuqtai nazaridan, uning ikki tomoni leksik va gramatik momentlari bordir. Shu bilan birga uning formalari ham mavjuddir. So‘z formalarini “fonetik”, “Grammatik” “leksik” va “so‘z-tushuncha” tomonlariga murojaat qilganimizdagina vokativ (chaqiriq, undash, murojaat formadagi) so‘zlar kategoriyasini to‘g‘ri ajrata olamiz. [5.3-4]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/ LITERATURE REVIEW AND METHODS).

B. O‘rinboyevning “Hozirgi o‘zbek tilida vokativlar” nomli monografiyasida yozilishicha vokativ so‘zi ilk bora lingvistik termin sifatida qo‘llanilishi F. Polikarpovning “Лексикон треязычный, сиреч речений славянских, елиногреческих и латинских сокровище”ida va undan keyinroq tuzilgan “Российских цэллариус или этимологический...”da uchraydi. M. V. Lomonosov “Российская грамматика”sida vokativ formaning morfologik sintaktik xususiyatlarini bayon etib, bosh kelishikdagi ot bilan vokativ forma farqini ko‘rsatib beradi. A. V. Popov, A. Potebnya ham vokativ forma yuzasidan o‘z fikrlarini aytganlar. A. Potebnya vokativni “jonli so‘zlashish formasi” deya izohlaydi. [5.14]

Otlardagi turlanish sistemasining unifikatsiyasi natijasida tilning tarixiy taraqqiyotida ayrim gramatik formalar qo‘llanishdan chiqib qoldi. Ana shunday formalardan biri undash kelishik (vokativ) formasidir. Bu narsa undash kelishik deb ataluvchi praktik materialning butunlay yo‘qolganini ko‘rsatmaydi. Hozirgi zamon adabiy tilida, ayniqsa, so‘zlashuv nutqida shunday formalar ko‘plab uchraydi. Bunday so‘zlarni umumiylar tarzda, ya’ni morfologiyada ham, sintaksisda ham undalma deb ataydilar. [1.55]

Keyingi yillarda nashr qilingan ko‘plab ilmiy asarlar va darsliklarda ham aynan vokativ formasi haqida biror ma’lumot topish mushkul, ba’zi manbaalarda faqatgina vokativ gap haqida so‘z yuritiladi-yu, aynan vokativ termini yoritilmaydi.

Jumladan J. Seytjanov o‘zining “Ingliz va o‘zbek tillarida undalmaning qiyosiy tadqiqi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida ham vokativ formasidagi so‘zlarni undalma deb berib bir necha misollar keltirgan. Bu albatta, vokativ formasidagi so‘zlearning gapdagi vazifasiga nisbatan to‘g‘ri keladi. Vokativ formasidagi otlar gapdagi sintaksis funksiyalaridan biri undalma vazifasida kelishini B. O‘rinboyev ta’kidlaydi va quyidagi parchani misol tariqasida keltiradi:

Tovush (ko‘chadan). X a f i z a! D e h q o n b o y! Majlisga! (A.Qahhor)

E x o l a, siz shunaqa ham o‘ylamang! (Hamza)

T o g‘ a, ayamga xat yozmabsiz-ku! (A. Qahhor) [5.115]

A.Sayfullayev undalma to‘g‘risida fikrlar berish mobaynida mustaqil qo‘llanilgan undalmalarni turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinganligini aytadi. Jumladan, A. Sulaymonov ularni vokativ undov gaplar deb atalishini, A. Shahmatov esa ularni bir sostavli vokativ gap deganligini keltirib o‘tadi. Ammo bu fikrlarga A. Sayfullayev qarshi o‘laroq ularni mustaqil qo‘llangan undalma deb ataydi [2.20-21]

J. Seytjanov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida undalmalarni uch maqomda kelishini ta’kidlab, ulardan biri mustaqil sodda undalma (vokativ gap) maqomida deydi va quyidagi misolni keltiradi:

-Ahmad aka!

-Labbay

-Mehmonlar kelishdi.

Vokativ sodda bir tarkibli mustaqil gap bo‘lib kelgan undalma, odatda nutq qaratilgan shaxs so‘zlovchidan uzoqda bo‘lganida, so‘zlovchig ko‘rinmaganida, nutq amalga oshish paytida shaxslar ko‘p bo‘lganida, nutq qaratilgan shaxsning qulog‘i og‘irroq bo‘lganida, ko‘zi ojiz bo‘lganida ishlatiladi. Bunda undalma balandroq to‘nda va alohida intonatsiya (chaqirish intonatsiyasi) yordamida talaffuz etiladi,- deya izohlaydi. [3.19]

B. O‘rinboyev-“vokativ gaplar so‘z-gaplarning bir turi hisoblanadi. Ularni undalma deb atash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Ayrim avtorlar undalma bilan vokativ gap bir-biriga teng hodisa deb tushunadilar”-deydi. [5.122]

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Quyidagi jadvalda B. O‘rinboyevning “Hozirgi o‘zbek tilida vokativ kategoriyasi” nomli monografiyasining dastlabki ikki qismida misol tariqasida keltirilgan vokativ (formasidagi) so‘zlar, shu bilan birga bu so‘zlarning qo‘llanilishiga doir izohlar keltirilgan. [5.3-39]

	Vokativ forma	Qo‘llanilishi	Izoh	Sahifasi
1	Xonim	-Xonim, bekorga bezovta bo‘lmang(M. Kozimiy)	Bu yerda “xonim” so‘zi uncha kuchli bo‘lмаган intonatsiya bilan ajralib vokativ forma bo‘lib kelayabdi	10
2	Xonim	_Xonim! Sizni uyqudan mahrum qildim. (M.Kozimiy)	Bundagi “Xonim” so‘zi o‘zining intonatsiyasi bilan farq qiluvchi vokativ so‘zdir	10
3	Ahmadjon	Ahmadjon, darsni tayyorladingmi?	A. G‘ulomov undash kelishigi (vokativ forma) ning sintaktik funksiyasini bayon etib ushbu misolni keltiradi.	17
4	Boboy		-ay affaksi, asosan, murojaat ma’nosida keladi. Shu	18
5	Onamay			

6	O‘g‘limay		murojaat vokativ formaning asosiy xususiyati	
7	Chirog‘imay			
8	Otasiyey		Z.Ma’rufov undov deb aytgan ushbu so‘zlarni B.	18
9	Onasiyey		O‘rinboyev vokativ so‘zlar deydi	
10	Akasiyey			
11	Ay bekim		A. M. Sherbak bu tipdagi so‘zlarni vokativ so‘zlar deydi	20
12	Yo Rab			
13	Ey domla	Ey domla, qani-qani, o‘tirsinlar(K. Yashin)	Gap tarkibida V.F. mavjud bo‘lsa, u vaqtida kesimlik affiksining ma’nosini aniq seziladi	20
14	O‘rtoq		Leksik yo‘l bilan vokativ ma’no ifodalovchi murojaat so‘zlar	21
15	Taqsim			
16	Do‘sit			
17	Otasi		III shaxs egalik affiksini olgan ot murojaat ma’nosida kelsa sintaktik aloqani ko‘rsatmay leksikalizatsiyalashadi va natijada so‘z yasash elementiga aylanadi	22
18	Otasi Onasi Bo‘tam Chirog‘im	Ushu so‘zlar egalik affaksi ta’sirida va intonaysiyaning kuchi bilan murojaat ma’nosidagi vokativ formani hosil qilayabdi	Otlardagi egalik affksi egalik ma’nosini tashish bilan birga bu ma’nosini yo‘qotib , leksikalizatsiyalashganda vokativ formasidagi so‘z vazifasida keladi	23
19	Xonim Otasi Otaxon		Ushbu so‘zlar leksikalizatsiyalashganda urojaatni bildiradi	24
20	Ey chirog‘im	Ey chirog‘im, bu joy asli xatarli joy (Abay)	Emotsionallik kuchli bo‘lgan vokativ forma	25
21	O‘rtoq	Chaqirish Undash Murojaat ottenkasi sezilib turadi	Vokativ formani ifodalovchi va kishilarning murojaatida qo‘llaniluvchi so‘zlarni vokativ so‘zlar deb atasak bo‘ladi	26
22	Janob			
23	Taqsim			
24	Grajdanin			
25	Do‘sit			
26	Jo‘ra			
27	Bonus			
28	Jonim			
29	O‘g‘lim		Erkalatish yuzasidan bo‘adigan murojaat	26
30	Qizim			
31	Boboy	Samaddan keyin Nodir ham og‘ir qo‘zg‘aldi: -Xa, boboy, nima gap? Odil Yoqubov “Ayamajuz”	-y, -ay affikslarini ba’zi tilshunoslar vokativ forma hosil qiladi deydilar	26
32	Muhabbat-uv	Roqiya: Xayridasini toparsan, endi! Muhabbat-uv... (N.Safarov) Obida-yu! Ayam chaqirayabdilar Olimjon-u! tez kel.	-u, -yu, ov kabi yuklama tipidagi formalarni keltirish bilan vokativ so‘zlar yasaladi.	26

			Bu so‘zlardagi undash inonatsiyasi vokativni boshqa so‘zlardan farqlaydi	
33	Boboy Momoy Ey oqsaqol Xoy chol		Turli vokativ undovlar bilan birga kelgan yoki -y, -ay affikslarini olgan so‘zlar	27
34	O‘rtoq grajdanin Director Ministr		Murojaat ma’nosida VS	27
35	Qizim Chirog‘im Jonim		Leksikalizatsiyalashgan so‘zlar vokativ forma	27
36	Ey oy!	Ey oy! Menga ayt! (S.Abdulla)	Tabiatni jonantirish maqsadida murojaat	28
37	Muallim	-Muallim!..	Vokativ formasidagi so‘zlar	31
38	Afandim	-Afandim!.. -Yuring! Biz o‘qishga keldik (P. tursin)	II shaxs ma’nosini berayabdi	
39	Taqsim O‘rtoq Janob Qo‘zim Bo‘tam Ey domla		Vokativ forma ma’nosini beruvchi so‘zlar	32
40	Xudoyo Musulmonlar	Xudoyo, yuragim Yonishingni qilgin bas! Polvon ota: Qurbon!.. Toshbolta (baqiradi): Qo‘yvor, Qo‘yvor deyman. Dod, musulmonlar	V.F birlik yoki ko‘plikda kelishi mumkin	33
41	Katta oyi	Katta oyi! Siz bir kelib ketar ekansiz. (jonli so‘zlashuv)	V.F.da kelgan otdan oldingi sifat hamma vaqt tub holatda keladi	33
42	Og‘aynilar	Og‘aynilar! Yurt vayron, mol-u jonlar talangan (K.Yashin)	V.F. bosh kelishikda II shaxni ko‘rsatmoqda	33
43	Bahodirlar Qizil menganlar	-Ey siz, bahodirlar, qizil menganlar. Shu ona hurmati turing oyoqqa (Uyg‘un)	Vokativlar takrorlanib kelgan	34
44	Inobat-u-u	Inobat-u-u... Bir kelib ket (Jonli so‘zlashuv)	Maxsus chaqirish intonatsiyasiga ega	34
45	Otaxon E Xudo Muhabbat-u	Xaydar: Otaxon! Bardammisiz?(Uyg‘un) E Xudo, sening ba’zi ishlaringga tushunmayman. Roqiya: Muhabbat-u-u(N.Safarov)	Murojaat, undash, chaqiriq tipidagi vokativlar	35
46	Xo‘jayin	-Xaq gapni aytin, Xo‘jayin!	Gap oxirida kelgan V.S murojaat ma’nosini beradi	36
47	Sevgilim	-Ofarin, sevgilim!		
48	Ona	Ofarin, ona!		
49	Opajon	-Opajon,- dedi Lola yolvorib,- yuring qidiramiz! (Sh. Rashidov)	V.F.dagi so‘zlar shaxsning g‘azabi, ginasi, istagi,	36

			yolvorishi kabi hus tuyg'ularni ifoda etadi	
50	Xoy qiz	-Xoy qiz! Otang bilan gaplashayotganiningni untib qo'yganga o'xshaysan-a? (M.Kozimiy)	V.F.dagi otlarni emotsiyonalligini undovlar oshiradi	36
51	Ey yosh bola	-Ey yosh bola! Bu polvonlarning oldida "men Oydinni izlab kelaybman deb gapirma"(Fozil Yo'ldosh o'g'li)		
52	Oyi	-Oyi, xoy oyi	V.F.dagi so'zlarning emotsiyonalligini oshrish uchun so'zlarning takrorlanib kelishi mumkin	36
53	Gulsaram	Qodirjon: Gulsaram, Gulsaram! (K. Yashin)	V.F.lar ko'pincha so'zlashuv nutqida uchrab tinglovchi diqqatini so'zlovchi nutqiga qat'iy jalb qilish uchun qo'llaniladi	37
54	Xoy Banak	Xoy Banak, Xoy Banak, Xoy Banak!.. Bo'rilar hujum qilib qo'ylni qildi halok("Ozarbayjon ertaklari")		
55	Xayotim Bolam Qizim Qo'zim Bolaginam Qo'zichog'im	Xayotning onasi dod solib qizini chaqirdi: Xayotim! Bolam, aylanay qizim! Men, onang ; keldim qo'zi! Tirikmisan, jon bolam Bolaginam, qo'zichog'im... mingdan ming roziman sendan... ("Sharq yulduzi"jurnali)	V.F.dagi emotsiyonallik bir predmetga yoki shaxsga bir necha nom bilan murojaat qilishda hosil bo'ladi. Bu hol uning gap darajasida ko'tarilishiga sbabbchi bo'ladi	37
56	Aziz o'rtoqlar, Grajdalar, Qadrli o'rtoqlar, do'stlar, Chiroqlarim, Qaroqlarim, lazizlar	Aziz o'rtoqlar! Jahonda eng katta Buxoro-Ural gaz quvurining birinchi navbatи qurilib bo'lganligi to'g'risidagi habarni KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti eshitib, sizlarni qutlaydilar.("Qizil O'zbekiston"gazetasi) Grajdalar, Yo'l qoidasiga amal qiling!	Emotsional xarakterdagи V.S.lar chaqiriqlarda, shiorlarda, buyruqlarda, notiqlar nuttdida va xatlarning boshida keladi. Bunda, asosan, murojaat ifodalanadi	37
57	Ona	-Ona, bir kelib keting. (S.Ayniy)	V.F vazifasida kelayabdi chunki u ikkinchi shaxs ni ko'rsatmoqda	39

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, muloqot jarayonida murojaat, chaqirish, undash kabi ma'nolarni beruvchi otlarni vokativ formasidagi so'zlar, ular muloqotda foydalanilganda sintaktik funksiyalaridan biri (vokativning sintaktik funksiyalari ko'p, biz buni keyingi ishlarimizda yoritamiz) esa undalma bo'ladi deb atashimiz mumkin. Shunisi harakterlik, vokativ so'zlar hamma vaqt II shaxsni ko'rsatadi va bu uning eng asosiy xususiyati hisoblanadi. [6. 261]

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, ba’zi olimlar tomonidan aytilgan vokativ forma yo‘qoldi iborasiga qarshi o‘laroq, hech bir narsa izsiz yo‘qolib ketmaganidek, tilda undalma bor ekan, demak vokativ forma ham mavjuddir. Bu formadan har kuni nutqda murojaat shaklida foydalanilai. Vokativ formalarni qo‘llash orqali, tinglovchi diqqatini tortiladi, ularni takrorlab, intonatsiya orqali emotsiyalar bildiriladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Doniyorov X. Jelashgan dialektning xarakterli morfologik xususiyatlari, SamGU asarlari, Samarqand, 1960.
2. Sayfullayev A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida undalma, Toshkent, 1968.
3. Seytjanov J. E. Ingliz va o‘zbek tillarida undalmaning qiyosiy tadqiqi, f.f.b.f. diss. Toshkent, 2012.
4. Sulaymonov A. O‘zbek tilida atov gap, undalma, vokativ gaplar, Samarqand, 1956.
5. O‘rinboyev. B. Hozirgi o‘zbek tilida vokativ kategoriysi, Toshkent, 1972.
6. Shahmatov A. A. Синтаксис русского языка, Moskva, 1941.